
Telegramda ochilgan guruh orqali buyurtma olib, savdo qilmoqdaman

Azizaxon Egamberdieva "O'zbekiston" mahalla fuqarolar yig'inida yashaydi. Boquvchisi yo'q, qaramog'ida esa farzandlari bor. 2021 yildan buyon tikuvchilik bilan shug'illanadi.

"Ayollar daftari"ning 3-bosqichini shakllantirish davomida ro'yxatiga olingan Azizaxonga mahallada faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faolining o'rganishi va bildirgisiga asosan susidiya asosida tikuv mashinasi topshirildi.

-Uch yildan buyon tikuvchilik bilan shug'illanaman. Oilamning asosiy daromadi shu hisoblanadi, - deydi biz bilan suhbatda Azizaxon Egamberdieva. - Hozirda oila va ro'zg'or uchun ko'plab mahsulotlar tayyorlayman. Asosan telegramda ochilgan guruhim orqali buyurtma olib savdo qilaman. Tikuv mashinam eskili bois, ish xajmini oshirolmas edim. Menga yangi va zamonaviy tikuv mashinasi berishdi. Endilikda faoliyatimni yanada kengaytirishni reja qilmoqdaman.

2023-03-09 16:42:16